

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURIZM VA SERVIS KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.48:339.138 (575.1)

TESHAYEV ZAVQIDDIN JABBOR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
REKLAMADAN FOYDALANISH**

71010401 – “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
PhD dots. Sh. Sayfutdinov**

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrası dastlabki himoyasidan o'tgan.

20 -sonli bayonnoma "20" 04 2023 y.


Kafedra mudiri: i.f.d., prof. I. Axmedov


imzo

05.05.2023

sana

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Sayfutdinov Sh.


imzo

05.05.23

sana

Magistrant:

Teshayev Z.



imzo

03.05.23

sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 2021 yil "20" dekabr
№ 808-V raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Turizm bugungi kunning eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy fenomenlaridan biriga aylandi. Boshqacha qilib aytganda, jahon iqtisodiyotida turizm eng serdaromad sohalardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti sayyoramizning ko‘plab aholisini turizm sohasiga jalb qilmoqda. Shu nuqtai nazardan ham, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ichki turizmdan samarali foydalanish muhim sanaladi. Bu yo‘nalishni amalga oshirishda, reklamani qo‘llash esa soha rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, mazkur mavzu dolzarb hisoblangani bois, bu bo‘yicha tadqiqot ishini olib borildi.

Mavzuning maqsad hamda vazifalarini ochib berishda nafaqat xorijiy, shu bilan birga mahalliy mutaxassislarning ishlanmalari, ilmiy va amaliy tadqiqotlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot ishidan taqqoslash, monografik o‘rganish kabi tadqiqot usullari yordamida mavzuni yoritildi.

Mazkur mavzuning nafaqat ilmiy balki, amaliy ahamiyati ham keng bo‘lib, O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda reklamadan foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ichki turizm, marketing, reklama, turistik xizmat, turistik mahsulot.

ANNOTATION

Tourism has become one of the most important social, economic and cultural phenomena of today. In other words, tourism is becoming one of the most profitable sectors in the world economy. Today, the development of society attracts many people of our planet to the field of tourism. From this point of view, taking into account the existing opportunities in the development of the field of tourism in Uzbekistan, effective use of domestic tourism is considered important. In the implementation of this direction, the use of advertising is of great importance for the development of the industry. Therefore, since this topic is considered urgent, we conducted research on it.

In the process of revealing the goals and tasks of the subject, the developments, scientific and practical researches of not only foreign, but also local experts were widely used. The subject was illuminated using research methods such as comparison of the research work, monographic study.

This topic is not only scientific, but also of practical importance, scientifically based proposals and recommendations have been developed for the use of advertising in the development of domestic tourism in Uzbekistan.

Key words: *tourism, domestic tourism, marketing, advertising, tourist service, tourist product.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
KIRISH.....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	10
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
Tadqiqot ilmiy yangiligi.....	12
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	14
1.2 Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	20
1.3 Mavzuga oid adabiyotlar sharhi	25
II BOB. METODOLOGIYA.....	26
2.1 Tadqiqot dizayni.....	26
2.2 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	26
2.3 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	27
2.4 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	27
2.5 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
3.1 Turizm sohasida reklamanning ahamiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	29
3.2 Turizm sohasida reklamadan foydalanish bo'yicha xorij tajribasi.....	36
3.3 Turizm sohasini rivojlantirishda reklamadan foydalanish yo'llari tahlili.....	43
3.4 O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda reklamadan foydalanish imkoniyatlari tahlili.....	51
XULOSA.....	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	64
ILOVALAR.....	68

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Turizm sohasi bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyoti uchun katta iqtisodiy samara keltira oladigan sohalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur sohada kam sarf-xarajat qilib, yuqori foyda ko‘rish imkoniyati boshqa sohalardan ko‘ra katta ekanligi bilan, O‘zbekiston sharoitida ham unga katta ahamiyat berilmoqda. Turizm sohasi ham boshqa iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasida bo‘lganligi bois, unda ham umumiy marketing faoliyatlarini amalga oshirish talab etiladi. Bunday faoliyatlardan eng muhimi reklama va u bilan bog‘liq jarayonlarni misol keltirish mumkin. O‘zbekiston o‘zida mavjud turistik salohiyatni nafaqat xorijiy balki mahalliy turistlar orasida targ‘ib qilishda reklama faoliyatidan keng foydalanish hamda ommalashtirilish muhim. Negaki ichki turizmni rivojlantirishda ham hozirgi kunda mahalliy aholini jalb qilish mamlakatning turizm sohasida muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Turizmدا reklama bozor faoliyatining o‘ziga xos qismi bo‘lib, keng va ko‘p qirrali turi hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, reklama faqat marketing kompleksida yuqori samaradorlikka erishadi. Reklama ommaviy axborot vositalari tufayli mavjud bo‘lib, ularning ajralmas qismi va ularga asosiy daromad keltiradigan manbasidir. Shuning sababli ham reklama shaxsiy hayot, turmush tarzi, turli vaziyatlar va qiziqishlarning shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadigan zamonaviy jamiyat hayotining bir qismiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, dunyoqarashni kengaytirishda, ta'lim darajasini yuksaltirishda turizm sohasida qo‘llaniladigan reklama alohida o‘rin egallaydi. Turizm sanoati eng yirik reklama beruvchilardan biridir. Xorijiy sayyohlik kompaniyalari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rtacha hisobda o‘z daromadlarining 5-6 foizini turistik sayohatlar va safarlarni reklama qilish uchun sarflaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham nafaqat xalqaro turizmni balki mahalliy aholining O‘zbekiston bo‘ylab sayohatini amalga oshirishga mo‘ljallangan ichki turizmda ham reklama faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirish bo‘yicha juda ko‘plab